Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 94

QATAG‘ON YILLARIDA MILLIY O‘ZLIK VA OILA QADRIYATLARINI SAQLAB QOLGAN JASUR O‘ZBEK AYOLLARI

Shoira Azizovna Rasulova*
Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi
✉ shoirahon@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XX asrning 30–50-yillarida sho‘ro (sovet) to doirasida amalga oshirilgan siyosiy qatag‘onlar va uning O‘zbekistondagi ijtimoiy-madaniyat, oila instituti hamda xotin-qizlar taqdiriga ko‘rsatgan fojiali ta’siri konseptual jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada rejim tomonidan “Vatan xoinlarining oila a’zolari” sifatida tamg‘alanib, ALJIR va boshqa mehnat-tuzatish lagerlariga surgun qilingan, shuningdek, repressiya tazyiqi ostida yashagan o‘zbek ayollarining matonati tadqiq etiladi. Ziyoli va davlat arboblarining rafiqalari timsolida sovet totalitarizmining oilani destabilizatsiya qilish va milliy o‘zlikni unuttirishga qaratilgan unifikatsiya siyosatiga qarshi o‘zbek ayollarining ma’naviy va qadriyatli qarshiligi (resilience) aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar

Siyosiy qatag‘onlar, ALJIR, totalitarizm, milliy o‘zlik, oila qadriyatlari, ma’naviy matonat, aksiologik yondashuv, sovet unifikatsiyasi.

DOI: 10.5281/zenodo.23279295

KIRISH

XX asrning 30–50-yillari Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekiston tarixida eng fojiali va murakkab davrlardan biridir. Sovet totalitar rejimi tomonidan o‘tkazilgan ommaviy siyosiy qatag‘onlar nafaqat milliy ziyolilar, siyosiy va ma’rifatparvar elita vakillarini jismonan yo‘q qilishga, balki jamiyatning asosiy ijtimoiy va ma’naviy ustuni bo‘lmish oila institutini yemirib, milliy o‘zlikni ildizidan uzib tashlashga qaratilgan edi.Ushbu repressiv siyosatning eng og‘ir zarbasi o‘zbek ayollari va onalar zimmasiga tushdi. Bir tomondan, erlari, otalari va farzandlari “xalq dushmani” deb e’lon qilingan ayollar ma’muriy va ruhiy tazyiqlar ostida qolgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, uncha kam bo‘lmagan qismi IIXK (NKVD)ning 1937-yil 15-avgustdagi 00486-sonli mash’um buyrug‘iga ko‘ra bevosita lagerlarga va surgunlarga mahkum etildi. Biopolitik bosim va mafkuraviy tazyiq intensiv bo‘lgan ushbu sharoitda o‘zbek ayollarining milliy va ma’naviy matonati oila va o‘zlikni saqlab qolishning asosiy omiliga aylandi.

Stalincha qatag‘onlar mexanizmi jamiyatni to‘liq nazorat qilish va har qanday muqobil ijtimoiy tuzilmani yo‘qotish prinsiplariga tayangan. An’anaviy sharqona oila tuzilmasi, undagi ota-ona hamda farzandlar o‘rtasidagi ma’naviy rishtalar va avlodlar xotirasi (genealogik xotira) rejim uchun mafkuraviy xavf sifatida qabul qilindi.1937–1938-yillardagi “katta terror” davrida IIXK tomonidan qo‘llanilgan “xalq dushmani oila a’zosi” tushunchasi huquqiy va axloqiy tamoyillarga tamomila zid edi. Fayzulla Xo‘jayevning rafiqasi Xosiyat Tillaxonova, Akmal Ikromovning rafiqasi Zahra Ikromova, Yoqub Qosimovning rafiqasi Sobira Qosimova, Mannon Ramziyning rafiqasi Robiya Ramziy kabi yuzlab o‘zbek ziyolilarining rafiqalari va qarindoshlari hech qanday individual aybsiz, faqatgina oilaviy rishtalari sababli ALJIR (Akmolinskiy lager jen izmennikov Rodini) kabi maxsus konslagerlarga jo‘natildi.Lager va surgun sharoitida ayollar nafaqat jismoniy sovuq, ochlik, unum-

siz og‘ir mehnat, balki chuqur ruhiy va eksistensial fojiani boshdan kechirishdi farzandlaridan majburiy ravishda ayrilish, mol-mulkning musodara qilinishi hamda jamiyatdan izolyatsiya qilinishi shular jumlasidandir.

O‘zbek ayolining qatag‘on yillaridagi o‘rni va tutgan pozitsiyasini aksiologik (qadriyatli) yondashuv nuqtai nazaridan tahlil qilish muhim konseptual ahamiyatga ega. Sovet unifikatsiyasi va assimilyatsiya siyosatiga qaramay, o‘zbek xotin-qizlari bir qancha muhim ijtimoiy-madaniy funksiyalarni saqlab qola oldilar. Qatag‘on qilingan ma’rifatparvar va davlat arboblarining rafiqalari, onalari va qizlari tazyiqlarga qaramay, o‘z oila a’zolarining qo‘lyozmalari, shaxsiy buyumlari, fotosuratlari va eng muhimi — ularning pok nomi haqidagi xotirani yashirin ravishda saqlab qolishdi. Erlari otib tashlangan yoki lagerlarda halok bo‘lgan minglab ayollar yakka o‘zi, doimiy moliyaviy va ijtimoiy kamsitishlar ishga olinmaslik, uy-joyidan mahrum etilish sharoitida farzandlarini voyaga yetkazdi. Ular farzandlariga nafaqat bilim va tarbiya berishdi, balki ularning qalbiga milliy va axloqiy qadriyatlarni singdirishdi.Qozog‘iston dashtlaridagi ALJIR lagerida hamda surgun joylarida o‘zbek va boshqa turkiy va Sharq ayollari o‘rtasidagi o‘zaro ma’naviy va moddiy ko‘mak mahfiy ravishda milliy urf-odatlarni eslash, bir-biriga tasalli berish, taom ulashish totalitarizmining insoniylikni yo‘qotishga qaratilgan mash’um muhitiga nisbatan o‘ziga xos ma’naviy qarshilik shakli edi.

Qatag‘on yillarida o‘zbek ayollari ko‘rsatgan jasorat va matonat shunchaki jismoniy omon qolish emas, balki xalqning ma’naviy va madaniy darajasini saqlab qolish bo‘yicha amalga oshirilgan buyuk milliy xizmatdir. Ularning taqdiri sovet repressiv tizimining barbod bo‘lishi va milliy-ma’naviy ildizlarning uzilmay qolishida hal qiluvchi rol o‘ynadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi (O‘zMA), R-837-fond.
2. Rajabov K., Hayitov Sh. *O‘zbekistonda siyosiy qatag‘onlar tarixi (1930–1950-yillar)*. – Toshkent: Fan, 2012.
3. Shamsutdinov R. *O‘zbekistonda fojiali taqdirlar (1930–1980-yillar)*. – Toshkent: Sharq, 2008.
4. *Узницы «АЛЖИРа»: Информационный сборник* / Сост.: В. М. Гринберг va boshq. – Астана: Ело, 2008.
5. Serebryakova G. *Smerch (Vospominaniya i povesti)*. – Moskva: Sovetskiy pisatel, 1989.